ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 158 Э 94
ORCID 0009-0008-0378-3027

MENGLIYEVA GAVHAR IBROHIM QIZI
TerDPI tayanch doktoranti
E-mail: mengliyevagavhar3@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK OMILLAR

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada bolalarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni, ularda ijtimoiy ko'nikmalar va axloqiy qadriyatlarning shakllanishi tahlil qilinadi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, oilaviy muhit, pedagogik ta'sir, psixologik xususiyatlar, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalarining roli o'rganilgan. Maqolada ijtimoiylashuv jarayonini samarali boshqarish uchun ta'lim muassasalarining vazifalari va innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR: *maktabgacha yoshdagi bolalar, ota-ona, oilaviy muhit, ijtimoiylashuv, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi asosiy omillar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена изучению педагогических и психологических факторов, влияющих на процесс социализации детей дошкольного возраста. В статье анализируется процесс усвоения детьми социального опыта, формирования у них социальных навыков и моральных ценностей. Рассматриваются основные факторы, влияющие на социализацию детей дошкольного возраста, включая семейную среду, воспитательное влияние, психологические особенности, роль сверстников и средства массовой информации. В статье также освещаются задачи образовательных учреждений и важность инновационных образовательных технологий для эффективного управления процессом социализации.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. *Дети школьного возраста, родители, семейная среда, социализация, психологические характеристики, социально-эмоциональное развитие и ключевые факторы, влияющие на социализацию.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE SOCIALIZATION OF PRESCHOOL-AGE CHILDREN WITH DISABILITIES

ABSTRACT. This article is devoted to the study of pedagogical and psychological factors influencing the socialization process of preschool children. The article analyzes the process of assimilation of social experience by children, the formation of social skills and moral values in them. The article examines the main factors influencing the socialization of preschool children, including the family environment, educational influence, psychological characteristics, the role of peer groups and the media. The article also highlights the tasks of educational institutions and the importance of innovative educational technologies for the effective management of the socialization process.

KEYWORDS: *School-age children, parents, family environment, socialization, psychological characteristics, socio-emotional development, and key factors influencing socialization.*

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil, 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil, 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish 1 Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitablequality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea]. konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil, 20-fevraldagi PQ-4199-son “Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida “Prezident maktablarini ochish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo‘yicha ta’lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish texnologiyalari kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish dolzarbligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekictonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil, 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil, 31-dekabrdagi 820-son “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda asosiy vazifa qilib belgilanishi ham sohaning alohida e’tiborda ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Recpublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga ega” ekanliklari ularning jamiyatga uyg‘unlashish huquqi kafolatlari sifatida mustahkamlandi [2; 25-modda].

Respublikamizda so‘nggi yillarda maxsus ta’limni xalqaro andazalar asosida takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasiniyanadamustahkamlash,ularuchunmo‘ljallangan o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, professional pedagog kadrlar va mutaxassislar bilan ta’minlashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishlarini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun etarli shart-sharoitlarni yaratish”2 masalalari ustuvor etib belgilangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z nutqalridan birida shunday deb ta’kidladilar: “farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e‘tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi” [7; 2-b.].

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagg kadrlar bilan ta’minlash, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarda intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishning m e‘yoriy asoslari yaratilmoqda. Bu borada «Bolaning kelgusida o‘zini o‘zi muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emosional ko‘nikmalarni rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish» [3; 1-b.] muhim vazifa sifatida belgilandi.

Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlik sifatlarini rivojlantirish ularni bugungi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitda axborot texnologiyalari islohoti davrida madaniyatli, aqlli, ma’naviyatli bo‘lishini tashxis qilish istiqbolini belgilash hamda shaxs xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakllari, ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, kelajak avlodni boy ma’naviy hamda ilmiy va umuminsoniy kadriyatlar asosida kamol toptirishning ta’sirchan tizimini yaratish; ilg‘or pedagogik-psixologik tajribalarni, etnopsixologik va etnopedagogik usul va vositalarini, shaxs kamolotiga qaratilgan ijtimoiy - psixologik omillarni o‘rganish, ularni bolalar tarbiyasi jarayoniga tadbiq etish shu kunning dolzarb pedagogik- psixologik muammolaridan

hisoblanadi. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari –komil inson, insoniy fazilatlar, shaxsning sifat va fazilatlari, o'zini - o'zi anglash, muloqotchanlik sifatlari xususida keng qamrovli ilmiy fikr yuritadilar hamda uning ijtimoiy – psixologik ahamiyatini asoslashga harakat qiladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Hozirgi zamon psixologiyasida maktabgacha yoshdagi psixik taraqqiyot davri bola o'zligini anglanishi va Men konsepsiyasi shakllanishining muhim bosqich-laridan biri sifatida qaraladi (B.G.Ananyev, L.S.Vigotskiy, M.I.Lisina, V.S.Muxina, K.Rojers, Z.Freyd, K.Xorni,E. Erikson va b.). Biroq, bola shaxsi shakllanishining mazmun va mohiyati, uning ayrim unsurlari, ularning o'zaro nisbati va ontogenezning turli bosqichlaridagi namoyon bo'lishining mohiyati, shuningdek, ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar yetarli darajada o'rganilmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi muammosi yuzasidan xorij va MDH davlatlari tadqiqotchilaridan L.I.Bojovich, B.G.Ananyev, A.N.Leontyev, D.B.Elkonin, Ye.T.Sokolova, A.B.Orlov, M.I.Lisina, V.S.Muxina kabilar ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar [6; b 81].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Biz quyida imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy tajriba va ijtimoiylashuv bilan bog'liq jihatlariga, shu bilan birga tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan fikrlarga to'xtalib o'tishni ustuvor masala, deb bilamiz.

Ijtimoiylashuv jarayoni-inson va jamiyatning o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan hodisadir. Har bir shaxs muayyan jamiyatga qo'shilganda, shu jamiyatning tartib va qoidalarini qabul qilishga hamda unga bo'ysunishga majburdir. Chunki jamiyat doimo shaxsga ta'sir o'tkazadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi umr bo'yi davom etadigan jarayon hisoblanadi, sababi jamiyat hamisha rivojlanishda bo'ladi hamda o'zgarishlar va yangilanishlarni guvohi bo'ladi. Insonlar esa, jamiyat a'zosi sifatida mazkur yangilanishlarga moslashishga majburdir. Ijtimoiylashtirish – jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur hisoblangan namunali xulq, psixologik mexanizm, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir.

Bolaning ijtimoiylashuvi – juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Har

qanday jamiyat shunga intiladiki, har bir bola ma'lum ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlar tizimiga, shu jamiyat me'yor va qoidalariga ega bo'lishi, shu jamiyatda yashash uchun, teng huquqli a'zosi bo'lishga intiladi [6; 68-b.]. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy hayot mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv- inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instmkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv-inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv- insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi-qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondoshuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

B.M.Umarovning ta'kidlaganidek - oila o'z urf–odati, yo'nalishi, etnik va estetik dunyoqarashiga ega bo'lgan mikro ijtimoiy guruh bo'lib, uning moddiy va ma'naviy tomonlari bo'ladiki, bu oilada bola shaxsi kamolatiga, hulq-atvoriga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Garchand sog'lom muhitli, xush oilalarda va o'smirlar xulqi og'ishidagi asosiy omillardan biri oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar ekanligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Oilaviy munosabatlarda nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar orasida shaxslararo nizolar esa ko'pincha shaxslararo muloqot zamirida vujudga keladi.

M.Norboshevaning dissertatsiya ishida ota-ona-bola munosabatlaridagi hissiy sezgirlikning yuqoriligi ta'sirida tengdoshlari bilan munosabatlaridagi identifikasiya mexanizmining ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan «biz-

motivi» bilan uyg‘un holda shakllanishi orqali, boladagi kommunikativ sifatlarning rivojlanishiga erishish mumkinligi aniqlangan hamda maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuviga ota-ona va tarbiyachilarning hissiy-emosional munosabatlari ta’sirida affilyasiya motivlariga ustuvorlik berish orqali nutq senzitivligi va so‘z-mantiqiy xotiraning kuchayishiga asoslanib faol va pozitiv nutqni rivojlantirish mumkinligi asoslangan [6; 25-b.].

XULOSA. Nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi umr bo‘yi davom etadigan jarayon hisoblanadi, sababi jamiyat hamisha rivojlanishda bo‘ladi hamda o‘zgarishlar va yangilanishlarni guvohi bo‘ladi. Insonlar esa, jamiyat a‘zosi sifatida mazkur yangilanishlarga moslashishga majburdir.

1.Shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

2.Shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

3.Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamivat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi.

4.Rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Recpublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2018. - 21 b.

2.O‘zbekiston Recpublikasining 2008 yil 7 yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139-son Qonuni

3.Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. - T.: Baktria press. 2013, - 15-b.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

5.Arslanova M.M. Imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy tajribani shakllantirishning ayrim tarbiyaviy-korreksion masalalari.// “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnali. 2015/1. T., 2015. 34-39 b.

6.Norbosheva M.O. Maktabgacha yoshdagi bolaning muloqot sub’yekti sifatida
ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss.TDPU -2022-130 b

Norbosheva M.A. Ijtimoiy va pedagogik psixologiya: O‘quv qo‘llanma. –
Toshkent: “Ilm ziyo zakovat”, 2023-186 b